THE DIALECTICS OF DIGITAL RESPONSIBILITY AND FREEDOM OF INFORMATION IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL CYBERSECURITY CULTURE

Independent Researcher at Fergana State University

Yoqubov Oblobergan Maxsitali ugli

Abstract

This thesis provides a socio-philosophical analysis of the dialectical relationship between digital responsibility and freedom of information in the process of forming an individual's cybersecurity culture under conditions of digital transformation. It argues that freedom of information is an essential condition for individual activity in the digital environment, access to knowledge, and self-expression; however, when combined with irresponsible digital behavior, it may also generate individual and social risks. The conceptual views of M. Castells, L. Floridi, J. Habermas, and A. Giddens on communication, the information society, digital ethics, and reflexivity are employed as the methodological foundation of the study. The research substantiates the idea that digital responsibility is not a factor restricting freedom of information, but rather an internal norm that enables its safe and socially constructive realization. The concept of "responsible freedom of information" is proposed as an integrative socio-philosophical principle for the formation of individual cybersecurity culture.

Keywords

cybersecurity culture, digital responsibility, freedom of information, digital transformation, individual, digital ethics, information security, social responsibility, digital space, reflexivity.

SHAXS KIBERXAVFSIZLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI MAS'ULIYAT VA AXBOROT ERKINLIGI DIALEKTIKASI

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi Yoqubov Oblobergan Maxsitali o’g’li

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli transformatsiya sharoitida shaxs kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish jarayonida raqamli mas’uliyat va axborot erkinligi o‘rtasidagi dialektik munosabat ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Axborot erkinligining shaxsning raqamli makondagi faolligi, bilim olish imkoniyatlari va o‘zini namoyon etishining muhim sharti ekanligi, ayni paytda ushbu erkinlik mas’uliyatsiz raqamli xulq bilan uyg‘unlashganda individual va ijtimoiy xavflarni yuzaga keltirishi asoslanadi. M. Kastels, L. Floridi, J. Habermas, E. Giddens kabi olimlarning kommunikatsiya, axborotlashgan jamiyat, raqamli etika va refleksivlikka oid konseptual qarashlari metodologik asos sifatida qo‘llaniladi. Tadqiqot natijasida raqamli mas’uliyat axborot erkinligini cheklovchi omil emas, balki uni xavfsiz va ijtimoiy konstruktiv shaklda amalga oshirishning ichki me’yori ekanligi asoslanadi. “Mas’uliyatli axborot erkinligi” shaxs kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishning integrativ ijtimoiy-falsafiy tamoyili sifatida taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: kiberxavfsizlik madaniyati, raqamli mas’uliyat, axborot erkinligi, raqamli transformatsiya, shaxs, raqamli etika, axborot xavfsizligi, ijtimoiy mas’uliyat, raqamli makon, refleksivlik.

ДИАЛЕКТИКА ЦИФРОВОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ И СВОБОДЫ ИНФОРМАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ ЛИЧНОСТИ

Независимый исследователь Ферганского государственного университета Якубов Олоберган Махситали угли

Аннотация. В тезисе с социально-философской точки зрения анализируется диалектическая взаимосвязь цифровой ответственности и свободы информации в процессе формирования культуры кибербезопасности личности в условиях

цифровой трансформации. Обосновывается, что свобода информации является важным условием активности личности в цифровом пространстве, расширения возможностей получения знаний и самовыражения, однако в сочетании с безответственным цифровым поведением она может порождать индивидуальные и социальные риски. В качестве методологической основы используются концептуальные положения М. Кастельса, Л. Флориди, Ю. Хабермаса и Э. Гидденса, посвящённые коммуникации, информационному обществу, цифровой этике и рефлексивности. В результате исследования обосновывается положение о том, что цифровая ответственность выступает не фактором ограничения свободы информации, а внутренней нормой её безопасной и социально конструктивной реализации. «Ответственная свобода информации» предлагается в качестве интегративного социально-философского принципа формирования культуры кибербезопасности личности.

Ключевые слова: культура кибербезопасности, цифровая ответственность, свобода информации, цифровая трансформация, личность, цифровая этика, информационная безопасность, социальная ответственность, цифровое пространство, рефлексивность.

Kirish. Raqamli transformatsiya insonning axborot bilan munosabatlarini tubdan o‘zgartirdi. Ilgari axborotni yaratish va ommaviy tarqatish imkoniyati nisbatan cheklangan institutsional subyektlar qo‘lida bo‘lgan bo‘lsa, raqamli platformalar sharoitida oddiy foydalanuvchi ham bir vaqtning o‘zida axborotni qabul qiluvchi, yaratuvchi, sharhlovchi va tarqatuvchi subyektga aylandi. Mazkur transformatsiya axborot erkinligining ijtimoiy makonini kengaytirish bilan birga, shaxs zimmasidagi mas’uliyatning mazmunini ham o‘zgartirdi.

M. Kastels tarmoq jamiyatida kommunikatsion tarmoqlar ijtimoiy tuzilish va hokimiyat munosabatlarining muhim elementiga aylanganini asoslaydi.[1] Bu

jarayonda shaxsning kommunikativ imkoniyatlari kengayadi, ammo axborot oqimlarining ko‘payishi uning qaysi axborotga ishonish, nimani tarqatish va o‘z raqamli faoliyatining oqibatlarini qanday baholash masalasini ham murakkablashtiradi.

Shu sababli kiberxavfsizlik madaniyatini faqat texnologik savodxonlik yoki kiberhujumlardan himoyalanish qobiliyati bilan chegaralash metodologik jihatdan yetarli emas. Uning muhim tarkibiy qismi shaxsning axborot erkinligidan ongli, axloqiy va mas’uliyatli foydalanish qobiliyati bilan belgilanadi. Muammoning ijtimoiy-falsafiy mohiyati esa erkinlik va mas’uliyatning qanday nisbatda bo‘lishi kerakligi haqidagi fundamental savolda namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism. Axborot erkinligi zamonaviy raqamli jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biridir. U shaxsning axborotni izlash, olish, yaratish va tarqatish imkoniyatlarini anglatadi. Biroq erkinlikning ijtimoiy tabiati uning mutlaq emasligini ko‘rsatadi. Chunki shaxsning raqamli makondagi harakati boshqa insonlarning huquqlari, shaxsiy daxlsizligi, obro‘si, axborot xavfsizligi va umuman jamiyatdagi kommunikativ muhitga ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli makonda “men axborotni tarqatishga erkinman” degan pozitsiya “men tarqatayotgan axborotning ehtimoliy ijtimoiy oqibatlari uchun qanday mas’uliyatga egaman?” degan savol bilan dialektik birlikda qaralishi kerak.

J. Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi mazkur muammoni tushuntirish uchun muhim metodologik asos beradi. Habermas kommunikatsiyaning konstruktiv shakli o‘zaro tushunish, asoslangan fikr va kommunikativ ratsionallikka tayanishini ko‘rsatadi.[2] Raqamli muhitga tatbiq etilganda bu tamoyil axborot erkinligini faqat fikr bildirish imkoniyati emas, balki boshqa kommunikatsiya subyektlariga nisbatan muayyan mas’uliyatni ham nazarda tutuvchi ijtimoiy munosabat sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Raqamli mas'uliyatni esa shaxsning internetdan foydalanish qoidalarini bilishi bilangina izohlash mumkin emas. U, eng avvalo, raqamli xatti-harakatlarning ehtimoliy oqibatlarini oldindan anglash va o‘z faoliyatini shu anglash asosida boshqarish qobiliyatidir. Masalan, tekshirilmagan ma'lumotni ulashish, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish, boshqa insonning fotosurati yoki ma'lumotidan roziligisiz foydalanish, shubhali havolalarni tarqatish yoxud manipulyativ kontentni ko‘paytirish individual harakat sifatida sodir bo‘lsa-da, uning natijasi tarmoqli muhitda ko‘plab insonlarga ta'sir qilishi mumkin.

L. Floridi axborot etikasida inson va axborot muhiti o‘rtasidagi munosabatlarni kengroq ontologik kontekstda ko‘rib chiqadi. Uning yondashuvida axborot makonidagi faoliyat faqat texnologik operatsiya emas, balki axloqiy ahamiyatga ega faoliyatdir.[3] Bundan kelib chiqadiki, shaxsning kiberxavfsizlik madaniyati "o‘zimni qanday himoya qilaman?" degan savol bilan chegaralanmasligi, balki "mening raqamli faoliyatim boshqalarning xavfsizligiga qanday ta'sir qiladi?" degan savolni ham qamrab olishi lozim.

Shu yerda kiberxavfsizlik madaniyatining muhim transformatsiyasi namoyon bo‘ladi: individual himoyalanish madaniyatidan o‘zaro mas'uliyat madaniyatiga o‘tish. Chunki tarmoq jamiyatida bir foydalanuvchining mas'uliyatsizligi faqat uning shaxsiy xavfsizligiga emas, boshqa foydalanuvchilar va tashkilotlarning xavfsizligiga ham ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

E. Giddensning refleksivlik konsepsiyasi bu jarayonning yana bir jihatini tushuntirish imkonini beradi. Zamonaviylik sharoitida individ o‘z xatti-harakatlarini muntazam ravishda kuzatish, yangi axborot asosida qayta baholash va o‘zgartirishga majbur bo‘ladi.[4] Raqamli muhitda mazkur refleksivlik alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki texnologiyalar, xavf turlari va kommunikativ amaliyotlar tez o‘zgarayotgan

sharoitda bir marta egallangan kiberxavfsizlik bilimlari doimiy himoyani kafolatlamaydi. Shaxs o‘zining raqamli odatlarini muntazam qayta ko‘rib chiqishi zarur.

Demak, raqamli mas’uliyat statik qoida emas, balki refleksiv kompetensiyadir. U shaxsdan uch bosqichli faoliyatni talab qiladi: axborotni tanqidiy baholash, harakat oqibatlarini oldindan tasavvur qilish va zarur bo‘lganda o‘z raqamli xulqini o‘zgartirish.

Axborot erkinligi va raqamli mas’uliyat o‘rtasidagi dialektik munosabatni uch xil modelda ifodalash mumkin. Birinchi — cheklanmagan erkinlik modeli bo‘lib, unda shaxsiy tanlov birlamchi, oqibatlar uchun mas’uliyat esa ikkilamchi hisoblanadi. Bu yondashuv raqamli xavfsizlik nuqtai nazaridan dezinformatsiya, shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishi va boshqa xavflarni kuchaytirishi mumkin.

Ikkinchi — nazorat ustuvorligi modeli, unda xavfsizlikni ta’minlash uchun axborot faoliyatini imkon qadar tartibga solish asosiy vosita sifatida qaraladi. Mazkur model esa haddan tashqari kengaytirilganda shaxs erkinligining torayishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchi modelni mas’uliyatli axborot erkinligi modeli deb belgilash mumkin. Unda erkinlik va mas’uliyat bir-birini inkor qilmaydi. Aksincha, mas’uliyat erkinlikning ijtimoiy jihatdan barqaror shaklini ta’minlaydi. Shaxs axborotdan erkin foydalanadi, lekin uning haqiqiyligi, xavfsizligi, boshqa shaxslarning huquqlari va ehtimoliy ijtimoiy oqibatlarini ham hisobga oladi.

Shu jihatdan kiberxavfsizlik madaniyatining aksiologik formulasini “erkinlik → anglash → mas’uliyat → ishonch → xavfsizlik” tarzida ifodalash mumkin. Bunda axborot erkinligi boshlang‘ich qadriyat bo‘lsa, anglash uning kognitiv mexanizmi, mas’uliyat axloqiy regulyatori, ishonch ijtimoiy natijasi, xavfsizlik esa mazkur tizimning barqaror faoliyat ko‘rsatish sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek olimlarining globallashuv va axborot xavfsizligiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida ham shaxsning axborot ta’sirlariga munosabatida ichki ma’naviy mezonlarning o‘rni ta’kidlanadi. S. Otamurodov globallashuv sharoitidagi ma’naviy

xavfsizlikni insonning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ongli munosabati bilan bog‘laydi.[5] Mazkur yondashuv raqamli mas’uliyatni faqat huquqiy talab emas, balki shaxsning ichki qadriyatlar tizimiga singdirilgan xulq me’yori sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, “mas’uliyatli axborot erkinligi” tushunchasini shaxs kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishning integrativ ijtimoiy-falsafiy tamoyili sifatida taklif etish mumkin. Uning mohiyati axborot erkinligini tashqi cheklovlar yordamida qisqartirish emas, shaxsda mazkur erkinlikdan xavfsiz, axloqiy va ijtimoiy konstruktiv foydalanish uchun zarur ichki mas’uliyat mexanizmlarini rivojlantirishdan iborat.

Xulosa. Raqamli transformatsiya sharoitida axborot erkinligi shaxsning ijtimoiy faolligi va o‘zini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo‘lsa-da, ayni paytda uning raqamli xatti-harakatlari uchun javobgarlik doirasini ham kengaytirmoqda. Shu sababli raqamli mas’uliyat va axborot erkinligini bir-biriga qarama-qarshi kategoriyalar sifatida baholash metodologik jihatdan biryoqlama yondashuvdir.

Birinchidan, axborot erkinligi kiberxavfsizlik madaniyatining muhim aksiologik sharti bo‘lib, shaxsning raqamli makonda mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, raqamli mas’uliyat ushbu erkinlikning tashqi inkori emas, balki uning ijtimoiy va axloqiy chegaralarini ongli ravishda anglash mexanizmi hisoblanadi.

Uchinchidan, kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish “taqiqlash va nazorat qilish” modelidan “anglash va mas’uliyatli tanlov qilish” modeliga yo‘naltirilishi zarur. Bunda shaxs xavfsizlik choralarining passiv obyekti emas, raqamli makon xavfsizligini birgalikda yaratuvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchidan, raqamli mas’uliyatning refleksiv xususiyati shaxsdan o‘z axborot xulqini muntazam baholash, yangi xavflarga moslashtirish va harakatlarining boshqalarga ta’sirini hisobga olishni talab qiladi.

Beshinchidan, tadqiqotda ilgari surilgan “mas’uliyatli axborot erkinligi” tamoyili axborot erkinligi, shaxsiy avtonomiya, ijtimoiy mas’uliyat va kiberxavfsizlik o‘rtasidagi dialektik birlikni ifodalovchi konseptual kategoriya sifatida shaxs kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy metodologiyasini boyitishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Castells M. *The Rise of the Network Society*. 2nd ed. Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. P. 500–509.

2. Habermas J. *The Theory of Communicative Action. Vol. 1: Reason and the Rationalization of Society* / Trans. T. McCarthy. Boston: Beacon Press, 1984. P. 285–337.

3. Floridi L. *The Ethics of Information*. Oxford: Oxford University Press, 2013. P. 59–75.

4. Giddens A. *Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age*. Stanford: Stanford University Press, 1991. P. 32–34, 75–80.

5. Otamurodov S. *Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik*. Toshkent: O‘zbekiston, 2013.